

*Pirmuhammed Xolmahmatov*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*  
*Madaniyat va san'at menejmenti*  
*kafedra o'qituvchisi*

## **HAYKALTAROSHLIKDA OBRAZ YARATISH MASALASI (MOTAMSARO ONA HAYKALI MISOLIDA)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nafis san'at turi hisoblanuvchi haykaltaroshlikda obraz yaratish masalalari, o'ziga yarasha mashaqqatli jihatlari, haykaltaroshlikning buyuk namunasi hisoblanuvchi Motamsaro ona haykali haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** haykaltaroshlik, obraz, haykal, Motamsaro ona haykali, nafis san'at

*Pirmukhammad Kholmakhmatov*  
*Uzbek State Institute of Arts and Culture*  
*Management of culture and art*  
*teacher of the department*

## **THE QUESTION OF CREATING AN IMAGE IN SCULPTURE (ON THE EXAMPLE OF THE MOTHER OF MOURNING STATUE)**

**Annotation:** This article talks about the issues of creating an image in sculpture, which is considered an elegant art form, its difficult aspects, and the statue of the Mother of Sorrows, which is considered a great example of sculpture.

**Key words:** sculpture, image, statue, Mourning mother statue, fine art

Tasviriy san'atning asosiy turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik san'atida borliqni hajmli shakllar orqali makonda tavsivirlanadi. Stol ustiga qo'yiladigan haykalchalar, ko'cha va xiyobonlarga o'rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlari, tanga va medallarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlikning turli ko'rinishlari hisoblanadi.

Haykaltaroshlik asarlari o'rni, bajaradigan vazifasi, ishlanish uslubi va ko'rinishiga qarab turlicha nomlanadi. Haykaltaroshlik asarlari asosan dumaloq va relyef (bo'rtma tasvir) ko'rinishida bo'ladi. Dumaloq haykallarga hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lgan haykallar kiradi. Masalan, maydon va xiyobondagi yirik haykal va yodgorliklar, har xil mayda haykalchalar, taglikka o'rnatilgan haykallar va h.k. Bo'rtma haykallar odatda biror yuzaga bo'rttirib ishlangan bo'ladi. Bunday haykallar bir so'z bilan relyef deb ataladi («relyef» fransuzcha so'z bo'lib, yuza degan ma'noni bildiradi) Relyeflarni faqat old tomondan ko'rish mumkin. Bunday haykaltaroshlik asarlarida; kenglik, tabiat manzaralari ko'rinishi, hayotda sodir bo'lgan voqealar ma'lum muhitda aks ettiriladi.

Haykaltaroshlik asarlari bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab mahobatli, dastgoh, bezak va mayda haykaltaroshlik turlariga bo'linadi. Me'morlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan haykaltaroshlik asarlari, yodgorliklar mahobatli haykaltaroshlik turiga taalluqli. Shahar maydonlarida ko'pincha bronzadan quyilgan, marmar granitdan ishlangan mahobatli haykallarni ko'rish mumkin. Bunday haykallar Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Vatanimizning boshqa shaharlarida ko'plab uchraydi. Bu haykallar mahobatli (monumental) haykaltaroshlikka mansub. Haykaltarosh L. Jabborovning Amir Temur haykallari, Alisher Navoiy haykali va boshqalar ana shunday haykallar sirasiga kiradi.

Memorial inshootlar («memorial» lotincha — «xotira» so'zidan) ham mahobatli haykaltaroshlikka kiradi. «Jasorat», «Xotira maydoni» memorial majmualari atrof- muhit bilan uyg'unlashib ketadi, shuning uchun bunday inshootlar haykaltaroshlik ansambllari deb ataladi. Yodgorliklar, memorial ansambllarda odatda vatanparvarlik (fikir va tuyg'ulari) aks etgan bo'ladi. Bezak haykaltaroshligiga istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'chalar va binolarning devorlarini bezash uchun ishlangan haykallar kiradi. Bu turda turli hayvonlar (baliq, qurbaqa, laylak va hokazolar), ramziy bezak va shakllar keng qo'llaniladi. Ko'rgazma, uylarga qo'yishga mo'ljallangan haykallar dastgoh haykaltaroshligi turiga taalluqlidir. Bu tur san'at asarlarini har bir badiiy muzeyda ko'rish mumkin.

U yaqindan turib tomosha qilinadi. Shuning uchun u ancha nozik ishlangan bo'ladi, ularda insonning ichki dunyosi o'z ifodasini topadi. Bular portretlar, turli haykallardir.

Haykaltaroshlikda yog'och, tosh, granit, marmar, metall, beton, ganch kabilar xom-ashyo tarzida ishlatiladi. Haykaltarosh haykalning mazmuni va o'rnatiladigan o'rniga qarab turli xil xomashyoni tanlaydi: maxsus loy, suyak, sement, gips..., qimmatli metallar — oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda xomashyo bo'la oladi.

Haykaltaroshlikda rang deyarli ishlatilmaydi. Asar rangini odatda haykal uchun tanlangan xomashyo (marmar, granit, bronza va hokazolar) belgilaydi. Xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Jumladan Sharq haykaltaroshligida qadimda haykallarni bo'yash keng tarqalgan. Haykaltaroshlikning yana bir ko'rinishi- qadimdan keng tarqalgan turi terrakota («terrakota» italyancha so'z bo'lib, pishirilgan loy, demakdir). Loydan yasalib, maxsus pechlarda pishiriladi. U pishirilgandan so'ng qizil, ba'zan sarg'ish tusga ega bo'ladi. Keng ma'noda esa loydan yasalib, pechda pishirilgan haykaltaroshlik asarlari tushuniladi. Haykaltaroshlikning bu turi o'zbek san'atida qadimdan rivojlangan, bugungi kunda ham bu san'at ko'pchilikni o'ziga jalb etgan. Yuqorida tilga olingan H. Rahimova haykallari terrakotaga mansub Terrakota iqtidorli yoshlar markazi, to'garaklarda keng o'rganiladi.

O'zbekistonda haykaltaroshlikning barcha turlari taraqqiy etgan. Uning rivojida haykaltaroshlardan A. Ahmedov, A. Boymatov, I. Jabborov, M. Musaboyev, O. Ro'ziboyev, J. Quttimurodov, H.Husniddinxo'jayev, Y. Shapiro kabilarning hissalari katta.

O'zbek haykaltaroshligida juda katta kashfiyot bo'lib hisoblanuvchi, ajoyib obraz haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Motamsaro ona haykali - ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan O'zbekistonlik jangchilar xotirasiga bag'ishlab Toshkent shahrida 1999 yilda bunyod etilgan, "Xotira va qadrlash" maydoniga o'rnatilgan haykal. Unda farzand(lar)i urushdan qaytmagan motamsaro ona qiyofasi aks ettirilgan. Onaning yuzlarini ajin bosgan, qaddi bukilgan, g'amga to'la nigohlari

yerga qadalgan. U ikki qo‘lini o‘ng tizzasi ustiga qo‘ygancha chuqur o‘yga botgan. Onaning boshini quyi solgancha, o‘ychan o‘tirishi xalqimiz mentalitetidan kelib chiqib ishlangan. Sharq kishisidagi bosiqlik, vazminlik, g‘amni ichiga yutish va sirtiga chiqarmaslik xarakteri mohirlik bilan aks ettirilgan. Vaholangki, ona uchun farzand dog‘idan ham ortiq alamli azib yo‘q. Buning ustiga farzandining xoki begona joylarda qolib ketgan yoki taqdiri noma‘lum bo‘lsa. Motamsaro ona haykali og‘ir judolikka chiday olmay dodu-faryod qilayotgan onaning emas, balki ana shu judolikni ichiga yutgan, ichki iztiroblarini yuzaga chiqarmay, chuqur qayg‘uda o‘tirgan haqiqiy sharq kishisi, o‘zbek onasining timsolidir. Haykalning liboslari ham mohirona ishlangan. Ona yenglari keng va uzun sharqona ko‘ylakda, boshiga katta ro‘mol tashlab qo‘yilgan holda aks ettirilgan. Liboslar onaga o‘ziga xos ulug‘vorlik baxsh etib turibdi. Shu bilan birgalikda mazkur liboslarda ona obrazi muqaddas, beg‘uborlik va farishtasifatlik kasb etgan. Motamsaro ona haykali farzandi ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan minglab O‘zbekistonlik onalarning timsolidir. Xotira va qadrlash maydonida Motamsaro ona haykali bilan birgalikda ayvonlar ham qurilgan bo‘lib, mazkur ayvonlar tokchalarida ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan barcha O‘zbekistonlik jangchilar ism-sharifi bilan bitilgan varaqlanadigan bronza kitoblar o‘rnatilgan. Bugungi kunda yangi turmush qurayotgan yoshlarning Motamsaro ona haykali poyiga guldastalar qo‘yishi an‘anaga aylangan. Xotira va qadrlash kuni, turli bayram va marosimlarda ham ushbu maydonda turli tadbirlar uyushtiriladi. Xotira va qadrlash maydoni hamisha xalqimiz bilan gavjum.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J.Кеpinov G.M., Texnologiya skulpturn, M., 1936;
2. Golubkina A.S., Neskolko slov o remesle skulptora, M., 1963
3. Apuxtin O.K., Tasviriy san‘at asoslari, T., 1967
4. O‘zbek san‘ati, T., 2000. Ne‘mat Abdullayev.
5. <https://alldata.uz/product/motamsaro-ona-haykali/>